

KIRISH

Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohatimizning provard maqsadi yurtimizdagi yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoyitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Inson shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish rivojlangan insonni milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

I. A. Karimov.

Bu muhim maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda malakali mutaxassis kadrlar shakl shubhasiz hal qiluvchi rol o'ynaydi. Inson omilining kuch va ta'siri eng avvali yuksak ma'naviyat, jamiyatining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. U aholining bilimdonlik darasi, shu bilan bandlikning kasbiy malaka tuzilmasi va shu kabi ko'pgina shart-sharoitlar, vositalar orqali tarkib topgan. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq malakali mutaxassis kadrlar tayyorlanib, ulardan oqilona foydalanish masalasiga katta ahamiyat beriladi.

II. MAVZUNI ASOSLASH

MAVZUNI ASOSLASH

Diplom ishi mavzusi “Miniaturachi rassom K. Muzayevning” “Quyosh tutilishi” asaridan nusxa ko’chirish va uni o’qitish uslubi.

Diplom ishimga aynan shu mavzuni tanlashimga sabab ushbu oily dargohga o’qishga kirib, 4-yil davomida ko’p fanlardan tahsil oldim. Ular badiiy bezak, naqqoshlik, yog’och o’ymakorligi, ganch o’ymakorligi, rangtasvir, qalam tasvir, kompozitsiya, interer, san’at tarixi, sanatshunoslikka kirish, ishlab chiqarishda amaliy mashg’ulotlar hamda miniatura va nusxa ko’chirish. Bu fanlar ichida miniatura va nusxa ko’chirish faniga menda aynan miniatura degan savolga quyidagicha javob bergan bo’lar edim. Miniatura deganda birinchi novbatda XV asr sharq miniatyurasining buyuk nomoyondasi Sharq Dafa’li deb nom olgan bobokalonvatandoshimiz Kamoliddin Behzod betakror ijodiy merosi asrlar osha yashab kelmoqda. Musavvirning badiy yetuk asarlar, miniatura sanatida erishgan muvaffaqiyatlari butun sharq tasviriy san’atda o’zi xos maktabni vujudga keltiradi mo’yqalamni sehirli bilan go’zallik, nafosat olamida mo’jiza yaratgan ustoz sanatkori sabab, diplom ishimga rahbarlarim bilan maslahatlashgan holda aynan shu mavzuni tanlashga qaror qildim.

A) KAMOL MIRZAYEV

Istedodli ajoyib miniatyurachi rassomlardan bir. U mohiyatan milliy sanatkordik. Uning asarlari beg'uborligi va yuqori darajadagi ijro madaniyatni yuksak mahoratli texnikasi bilan ajralib turadi. U o'rta asrlar O'rta Osiyo miniatyurasi bilimdon bo'lib professirlarimizning hozirgi tushunchasi O'rta asrlar sharq miniatyurasining zabardast usullaridan ham ilgarilib ketdi. U kompozitsiyani bilan egallagan rassomlarni zangorov nazorat bilan chizadi rang va ritimni juda yaxshi his etadi, yuksak darajadagi obrazlikni yarata oladi, bezaklari go'zal ma'lum darajada shartlik qoidasi asosida tasvirlaydi, ijro texnikasi juda yaxshi, mayda detallargacha nafis chizadi yaxlit his eta biladi.

Ijodining o'ziga xosligi texnik, professional va ijodiy vositalarni tasvirlanayotgan narsaning yuksak badiiy ifodalanishiga xizmat qildirishdadir. Uning mahorati yuksak lirik-poetik kechinmalar va kayfiyatni go'yoki qovushtirib bo'lmaydigandek ko'ringan rang munosabatlari uyg'unligida bilishdadir. Daraxt zangori, yer binafsha rang, otlar tog' qizil va yashil yaproqlari hamda bulutlar zarraf bo'lishi mumkin biroq bularda ranglarning juda yaxshi uyg'unligi mavjud ranglar vositasida birgan ta'rifiga va ularning hayotiy asosligiga ishonadi kishi.

B) RANGTASVIR SAN'ATI HAQIDA

Mavzuga asosan miniatyura ishlash murojat, albatta rangtasvirga murojat qilamiz. Miniaturani qalamtasvirda chizib olganimizdan so'ng, rang berishimiz kerak bo'ladi. Shuning uchun rangtasvir san'ati haqidagi to'liq ma'lumot berib o'tsam.

Rangtasvir tasviriy sanat turi hisoblanadi. Voqeylikni badiiy tasvirlash va talqin qilish rangtasvirda nomoyon bo'ladi. U muhim ijtimoiy mazun va rangbarang g'oyaviy vazifalariga ega. Rangtasvir tomoshabin fikri va tuyg'ulariga ta'sir etishining muhim vazifasidir. Rangtasvir asarining g'oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetidan mujassamlashgan bo'ladi: syujetni rassom rangtasvirning ifoda vositalari, kopmozitsiyasi, rassom, rang, ritm orqali amalga oshiradi. Rangtasvir asari biror qattiq yuzada rangli ashyolarda, misol uchun bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Rangtasvir asarining asosi: yog'och, qog'oz, karton, shisha, metal va maxsus ishlov berilgan mato bo'lishi mumkin. Rangtasvir asarining muhim tasviriy va ta'sir vositasi-rang hisoblanadi. Rangtasvirning rang qatlami: moybo'yoq, guash, tempera, akvarel, rangli shisha, rangli toshdir. Ayrim hollarda rang qatlamini saqlash maqsadida, uning ustidan berilgan yopiq lak qatlamidan iborat bo'ladi. Rangtasvirning tasviriy ifoda vositasida va ishlash uslubi ishlatiladigan rang, qurollari xususiyati, rang eritgichlari, asosiga bog'liq.

Rassom rang orqali xoyoliy dunyo yoki borliqni ko'rinarli shakllarda tasvirlanadi makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini hajm va fakturasini ko'rsatishi, harakat inson ruhiyatidagi o'zgarishlar murakkab ichki xissiy kechilmalari, o'y-xayollarini aks ettirish mumkin.

Rangtasvir asari dastlab ijodkor ongi va tasavvurida paydo bo'lgan g'oya qoralamasi tarzida qalamdan biror yuza, ko'pincha qog'oz kartonda ishlab olinadi. So'ng bo'lg'usi ish mohiyatiga mos asos tanlanib, unga bajariladigan ishga ishlab beriladi. Shundan so'ng tasvir o'rni belgilab olinib, rasm ishlanadi. Rang berishda birinchi suyultirilgan rang bilan boshlab ko'p qatlamli yoki rangni bir quyishda bir qatlamni bajarish mumkin.

Rangtasvir janr va uslublari Rangtasvir mavzui va mavzuni yo'nalishiga qarab bir qator janrlarga bo'linadi. Ular quyidagilar:

1. Natyurmort janri.
2. Manzara janri.
3. Portret janri.

4. Batal janri.
5. Maishiy janr.
6. Tarixiy janri.
7. Animalistika janri.

Va boshqalar.

Rangtasvir asarlari ishlanishi bo'yicha shartli ikki uslubga ajratish mumkin. Birinchi yassi, ikkinchisi hajmli-bazaviy uslubdir.

Birinchi uslubda tasvir nursoyasiz yaxlit yassi shakllarda ishlanadi.

Ikkinchi uslubda esa tasvir hajmini nursoya yordamida muhit bilan bog'liq hamda tasvirlanadi. Bunday asarlar rangga boy bo'lib, unda ranglarning barcha tuslanishlarning xususiyatli, tashuvchi nurning qaytgan rangni ham, qaytgan nurlarning tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyligini ko'rish mumkin. Rangtasvir asarlarida bu ikki uslub orasida qat'iy chegara yo'q, biri ikkinchisii to'ldiradi.

Rangtasvir asarlari o'zining ishlanish o'rni mazmuni bajaradigan vazifasi, ishlanish uslubi va ko'rinishga qarab monumental, bezak, dastgoh, dekaratsiyasi, miniatyura va boshqalarga bo'linadi.

MINIATYURA JANRI

Miniatyura (frans, miniatyura: lotminium-qizil bo'yoq) badiiy usullari o'ta nafis bo'lgan kichik hajmli (mo'jas tas'viriy san'at asarlari o'rta asr qo'lyozmalari ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo'jiza rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, mag'izi soxta (toshqog'oz), metal, chinini, ba'za maishiy buyumlar (tamakidan, soat, uzuk va boshqa)ga ishlangan kichik hajimdagi rangtasvirga ham atamasi qo'llaniladi (miniatyura).

Badiiy M.ning kitob va portret M.si kabi sohalar keng tarqalgan. Kitob M.sida rasmlar rangli qilib tempera, guash, yelim, akvarel va boshqalar. Bo'yoqlar bilan qo'lda bevosita qo'lyozma kitoblar varaqlangan ishlanib, undagi naqishlar (sarlavha, unvon, lavha va b) shu kitoblarning bezaklari bilan uyg'unlashgan m.qadimdan ma'lum bo'lgan. Qidimgi Misr popiruslariga xira bo'yoqlar bilan perod rasmlar tekis yuzali qilib rangtasvir usulida ishlangan. So'ngi antic M.lar (4-6-asrlar) shakllar va nur havo holati to'g'ri berilganligi bilan diqqatga sozovor. Bu usul vizantiya M.si (asosan diniy qo'lyozmalar)da 10-a gacha hokum surgan M.ga ijodiyoti hususiyatlari kirib boradi 13-15-asrlar gotika M.sida naturasi haqqoniy ifodalashga intilish kuchayadi, rasmlar matn bilan izohlanadi shakllar jonlanadi, manzara, inter'yer, me'moriy hoshiyalarga keng o'rin beriladi. Fransiyada yirik M.ustilaridan A. Bonevyo, Jakmar, Eden va b samarali ijod qilardi. O'rta asrlar g'arb m.si mahalliy maktablarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Armaniston (6-7 asrlar) Gruziya (9-10 asrlar) Rossiya (11-asrlar)da m.rivojlanadi. O'rta asrlarda Sharqda m.ning o'ziga xos maktablari shakllangan. Arab m.sida bir qator maktablar (shakllangan) ajralib turadi. Misr, Suriya, Iroq, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Ozorboyjon, Eron, Xindiston qo'lyozma kitoblarning barcha bezaklari o'zaro uyg'unlikda bog'langan: chiziqli o'lim manzara, ranglarning nozik uyg'unligi ularning bezak tuzulishini belgiladi.

M qo'lyozma kitoblarning mo'jaz rasmlari va alohida ishlangan rasmlar sifatida 12-19-asrlarda sharqda keng tarqalgan. Avval ilmiy qo'lyozmalar (mos. Tabobatga oid Dioskoridning "Dorilar" risolasining arab tiliga tarjimai, Abu Rayhon Beruniyning "Asar ul-voqiya" – "O'tmishdan qolgan yodgorliklar", Qozvoniyning "Hujum", "Yulduzlar" va boshqalar), keyinchalik badiiy asarlar (Harviyning "Maqomot", "Kalila va Dimna", "Tarixi Tarabiy" kabi asarlari)ga rasmlar ishlangan badiiy adabiyot, asosan, epic shariyat-ma'naviy, dostonlar (Firdavsiyning "Shoxnoma" tuzomiy, Xusrav, Dehlaviy, Alisher Navoiylarning "Xamsa"lari, Jomiy Sa'diy, Hofiz, Sheroziy va b.ning asarlari) Qo'lyozmalari ziynatlash uchun yaratilgan m.lar alohida turkumni tashkil qiladi. Buyuk musavvir sifatida sharqda Moniydan so'ng Junaid Bog'dodiy, Xo'ja Abdulohiy, Mahmul

Siyohqalam, G'oyosiddim Naqqosh, Murak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullar Musavvir, Basavan Rizoyi Abbosiy va b.ning nomlari mashhur. Temuriylar davrida alohida varaqlarga m.ishlash va ulardan muraqqa tuzish an'anaga aylangan, alohida shahslar tasviri (portret)ni ishlash taraqqiy etgan, xususan, Hindistonda Boburiylar davrida yuksak darajaga ko'tarilgan. (katta katta to'qimadali, yoki mayin sathli) ishlanganligiga qarab ish yurutiladi. Nusha uchun asamiyatdagi kabi materillar tanlanishi muhim. Shunda asar nusha orginalga o'xshab chiqishga erishiladi. Agar asar muzey ekspanati bo'lsa va uning reproguksiyasi qo'l ostida mavjud bo'lsa ana shu namunaning kichik suratini kataloglarga chizish orqali kattalashtirib turishini tushurib tayyorgarlik qilib olish lozim. Bunda albatta asarning tasvir mashtabga muvofiq olinishi kerak. Asarda qanday bo'yoq turlari va xillari foydalanganligini aniq bilib olish toqozo etiladi. U suyuq yoki quyuq surtmalarda ishlanganligini bilish, o'rganish ham muhim. Nusha ko'chiruvchi faqat tesvir tarixi emas balki rassom uslubini, texnik o'ylarini ham o'xshatish, undan mahorat sirlarini o'rganish lozim. Nusha ko'chirishdan maqsad ham shunga yo'naltirilishi kerak.

NUSXA KO'CHIRISH TEXNOLOGIYASI

Nusxa ko'chirishda avvalambor original ishining yaratilishi texnikasi, tahlil qilinadi va uning yangi nusxa-janri uchun nusxalar kerkaligi oldindan belgilab olinadi. Masalan: agar biror taniqli rassomning namunali, mashhur rangtasvir asarini ko'chirish kerak bo'lsa ishni boshlashdan avval u qanday materialga nima bilan chizilgani aniqlab olinadi. Ish qanday bosqichlar asosida, qanday texnik usullarni qo'llab yaratilgani tadqiq etiladi. So'ng barcha jarayonlar original ishni ishlash jarayonidagidek bajariladi. Unda rassom qo'llagan barcha o'ziga xosliklar hisobiga olinishi kerakligi e'tiborda tutiladi.

Rangtasvirdan nusxa ko'chirishda o'ziga yarasha qonun-qoidalariga amal qilinishi lozim. Nusxa olinadigan ishining o'lchamlari aniqlanib so'ng o'sha o'lchamdan bir, bir yarim santimetr kechroq yoki kattaroq matoga nusxa ko'chirish, jarayoni quyidagicha bajariladi.

- avvalo asar reproduksiyasi topiladi.

- namuna o'lchash asliga yaqin qilib olingan karton-qalamtasvir ishlab chiqiladi.

- rasmga mato tortib u gruntlanadi.

- aslmyotga qanday bo'lsa shunday usulda, texnikada ishlashga hozirlanadi (grunt rangiga ahamiya qaratiladi)

- aslmyatdagi asosiy rel o'ynovchi ranglar palit rasmi (tayyorlanadi (saranib, idishdan chiqariladi)

- tayyor mato yuzasiga qalamtasvir tushuriladi, bunda qora qog'ozdan foydalanish mumkin.

- qalam tarki surkalib ketmasligi uchun uning ustidan jigarrang yoki "ultramarik" bo'yoqni suyuqroq qilib kichkina mo'yqalamda yurgizib chiqiladi.

- Tasvir aniq bo'gach, ostsurtmalar bajariladi;

- asta-sekin bo'yoq qatlami ustidan kerakli ranglar o'z vazifasiga kora oshrib (ba'zi yerda suyuq, ba'zi kerakli joyda quyuq qilib) boriladi.

- ranglar berish jarayonida tasvir tarixi buzulib ketmasligi kerak.

- avval kattaroq mo'yqalab ishlatilib, tasvir kattalashtirila boshlagach kichikroq mo'yqalamlarga o'tiladi.


-asl asarga bot bot qarab o'lchash o'xshamayotganligi tekchirib turiladi.

Asar nusxasi barcha ko'zda tutilgan talablar bajarilgach nihoyasiga yetkaziladi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Nusxa ko'chirish-asl asardan qarab yana bir huddi o'shandan ish bajaradi.
2. Letografiyasi-toshbosma rasmda nusxa ko'chirish.
3. Ofort-metallga o'yib, nusxa olish.
4. Grob'yona-mensolium yoki yog'ochga o'yib, so'ng undan bosma rasm nusxa olish.
5. Uchlik (troynik) – nusxa ko'chirishda foydalaniladigan suyuqlik.
6. Dastlabki ishlab-ostsurtma (podmalyubka) nusxa ko'chirish mumkin jarayon.
7. Ustma-lessirovka quyuq bo'yoq ustidan suyug'I bilan jololashtirish texnikasi.









ATROF MUHIT MUXOFAZASI QISMI

ATROF MUHIT MUXOFAZASI

Keyingi davrda fan yutuqlari shundan dalolat beradiki, tabiatdagi barcha jonli organizmlar biosferadagi ekologik muvozanatni muhim ahamiyatga ega ekan. Shuning uchun ham inson o'z xo'jalik faoliyatida hozirgi zararli hisoblangan. Hozirgi davrda dunyo bo'yicha eng xavfli jarayonlardan biri, bu tabiatning kundan-kunga nochorlashib borayotganligidir. Yer yuzidagi ayrim hududlarda tabiiy resurslardan notog'ri foydalanish oqibatida ana shunday muammolar vujudga kelmoqda.

Tabiat muozanatni to'g'ri tushunmaslik natijasida inson o'z yashab turgan muhit tabiiy xolatining o'ta buzulishiga sababchi bo'lmoqda.

Xususan orol atrofida qishloq xo'jaligida yo'l qo'yilgan xatolar dengizning qurishiga olib keldi bu esa o'z novbatida shu viloyatlardagi aholi yashash sharoitlarining yomonlashishiga va xar xil kasallikning kuchayishiga sababchi bo'ldi.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi har xil ekologik ziddiyatlarni keltirib, xassaton Amubaryoning quyi qismida xosil qilingan ekologik fojia, ya'ni har xil o'ta zaharli moddalarning dehqonchilikda ishlatilishi, daryo suvlarining to'g'ri foydalanmaslik buzulishi yerlarning ko'plab o'zlashtirilishi to'qayzorlarning yo'qolishi, ko'llarning quritilishi mintaqda ekologik muozanat buzilishiga olib keladi. Tabiatni muxofaza qilish muammosiga etibor bermaslik yoki uni ikkinchi rejaga surishning o'zi insoniyatni oziq – ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha uzoq muddatga tuzulgan rejaning bajarilishiga to'sqinlik qiladi, xuddi shuningdek u san'atni har xil mahsulotlar bilan taminlashni buzadi va oqibatda odamzorning yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitning yomonlashishiga olib keladi.

Shu narsaga alohida etibor berish kerakki, tozalik suvining atmosfera, havosining tarkibi va tuproqning unimdorligi jonli organizmlarning faoliyatiga bog'liqdir. Inson yashashi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarning yaratuvchisi tabiatdir.

Ha tabiat bitmas-tuganmas xazina undagi jonsiz o'simliklar dunyosi hayvonot olami yosh avlodning tabiatdagi xilma-xillikni, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri tushunishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar qiziquvchi bo'ladi. Ular yashayotgan joydagi rang-barang gullarni o'simliklar dunyosini, guldan-gulga qo'nib uchayotgan kapalaklarni, betinim sayrayotgan qushlarni ko'rib rohatlanadi, yayrashadi.

Yoshlarni tabiatning anashu go'zal manzalari bilan tanishtirib borishi tabiatning har bir o'simligi, hayvonot dunyosi ekologik muvozanatni saqlashda naqadar katta ahamiytga ega ekanni alohida qayt etib o'rganib boorish ular ongida analogik madaniyatni shakllantirish imkonini beradi.

Yosh avlodni tabiat va undagi ekologik muvozanat bilan tanishtirishdan asosiy maqsad ona vatanimizni sevish, uning o'simliklarini, hayvonot olamini salqash, ko'paytirish va ularga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishi ruhida tarbiyalash tufayli hozirdi davrda tabiatda sodir etilayotgan ekologik fojialarning oldini olishdan iboratdir.

Yosh avlodda tabiat va uning ekologik muammolari haqida to'la tushunchalar xosil bo'lish uchun bu jarayonni bog'cha yoshidan boshlash lozimdir. Shuning uchun ham bolalar bog'chalari boshlang'ich sinflar va ulardan ishlayotgan tarbiyachi muallimlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bolalarni tabiatning xilma-xilligini, uning go'zalliklarini ko'ra bilish uni sevish tabiatda yuz beradigan o'zgarishlar haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishi tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanish tufayli undagi muvozanatni saqlash ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lish kerak.

Turli bilim dargohlarida ta'lim olayotgan talabalar ana shu muhim vazifani to'g'ri his qilgan hamda birinchi navbatda tabiat qonunlari, uning ekologik muvozanatni shu vohada o'sadigan o'simlik yashaydigan hayvonot olami va ular to'g'risidagi o'zaro bog'lanishlarini guruh tahlil qilishlari lozim.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan xolda yoshlar dastlab ilm poydevorini bog'chalarda, maktablarda va oily o'quv yurtlarida lar ekamlarm biz tarbiyachilar va pedagoglar zimmasidagi asosiy va sharaflı vazifa yoshlarga anashu davrda boshlab bilim asoslrini puxta o'rgatish, tabiatda sodir bo'ladigan voqea-xodisalar haqida puxta tushunchalar berishdan iboratdir.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUNOSABATI QISMI

Bitiruv malakaviy ishim “Ko’zali natyurmort ishlash” mavzusida bo’lib unda loyihaning arxitekturaviy me’moriy va landshaft dizayn yechimi qarab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishida xavfsizlikni ta’minlash, yong’in va elektr xavfsizligini oshirish, zilzilada va yog’in-sochinlar odamlarni muhofaza qilish chora tadbirlari ko’rib chiqilgan shuning uchun ham birituv malakaviy ishining “Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo’limida biz asosiy e’tiborni har qanday joyda ham istalgan vaqtda ham sodir bo’lish ehtimoli bo’lgan tez-tez yuz beradigan yong’in portlash elektr havfsizligi havo xarakatining keskin sabr va ketishi kuchli qor yoki yomg’ir yog’ishi zilzilada ma’lum talablar bajarilgan taqdirda evakuatsiya yo’llari deyiladi yuz bergan favqulotda vaziyatlarning turiga bog’liq ravishda harakatlanish manbayida odamlar tasir etish xavf va odamlar oqimining miqdori o’zgarib boradi bu o’zgarish binolarning mo’ljallanishi odamlar oqimining tarkibi va turiga hamda evakuatsiyaning bosqichiga bog’liq ravishda har xil kechadi.

Evakuatsiya yo’llari bo’yicha bin ova inshootlarda xavfli holat yuzaga kelganda odamlarning bino ichida joylashgan doimiy ish joyida qisqa vaqt ichida tashqariga olib chiqadiga eng qisqa yo’l bilan tashqariga yo’laklar bo’ylab tashlangan yo’laklar bo’ylab kalidorlar, dahliz, zina, xonadagi zina poyalar va maydonchalar, darvozaxonalar chiqish eshiklar va boshqalar kiradi.

Evakuatsiya qilish joylari va o’lchamlarini aniqlash talablari.

Zilzila yong’in va suv toshqilari kabi vaziyatlar sodir bo’lgan taqdirda bin ova inshootlarda yashaydigan yoki ishlaydigan aholini muhofaza qilishda katta samaradorlikka ularni evakuatsiya qilishda ishlatiladi. Shuning uchun ham qurilishlarni loyihalashdagi asosiy vazifalarda aholini evakuatsiya qilish yo’llarining rejaviy konstruktiv yechimini ishlab chiqishidir.

Aholini evokuvatsiya qilish deb, nomlanuvchi majburiy harakatlanish o’ziga xos xususiyatlarga ega. Ofat manbaidan xavfsiz joyga harakatlanib odamlarning tashqariga chiqishi, bog’da joylashgan bin ova inshootlarda xonadan xonaga eshik orqali o’tish yo’laklari va kalidorlar bo’ylab yurib, zinapoyalardan tushishga to’g’ri keladi. Bu yo’llar va chiqish joylari va sanitariya gegin talablari hamda tizimlarining ishdan chiqishi suv bosichi kabi ofatlarga qaratamiz.

Yong'in va yong'in xavfsizlik Shahrisabz shahri tog'da yaqin hududda joylashgani uchun yong'in tez tez sodir bo'ladi. Yozda esa qurg'onchilik bo'ladi. Shuning uchun yong'in xavfsizligini ko'rib chiqamiz. Yong'in insonlar hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi moddiy va ma'naviy boyliklarni yo'q qiluvchi ofat, nazoratdan chiqib ketgan yonish jarayoni. Yong'in kelib chiqishi uchun quyidagi uch omilni bir vaqtning o'zida bir joyda bo'lishi yetarlidir.

Ya'ni

- yonuvchi modda (qog'oz, yog'och, texta, neft va uning mahsulotlari)
- yonish manbai (gugurt, uchqun, alanga)
- oksidlanuvchi (kislalard havo).

O'QUV USLUBIY QISM

PEDAGOG QANDAY BO'LISHI KERAK

Pedagog ya'ni o'qituvchilik kasbi juda ham murakkab kasblardan biri. Hozirgi zamon o'qituvchisi zimmasiga yosh avlodni jismoniy jihatdan pishiq, ruhan tetik, bilimdon, vatanparvar, mamlakatimizda demokratik jamiyat qurilishning vazifasi yuklangan. Shuning uchun ham u keng ma'lumotli va yuksak madaniyatli kishi bo'lishi lozim.

O'qituvchi talabalarni sevishtirish ularga chinakam g'amxo'rlik qilish va ular bilan o'z farzandidek munosabatda bo'lishi kerak. Talabalar mehribon ochiq ko'ngil, o'zini ularga yaqin tutadigan o'qituvchini sevadigan, har bir ishda unga erishishga harakat qiladilar, hatto shunday hislatlarga ega bo'lgan pedagoglardan ba'zilarini umr bo'yi unutmaydilar.

O'qituvchiga xos xususiyatlardan yana biri talabalar bilan bir me'yorda munosabatda bo'lish, lekin ularga nisbatan qat'iy va jiddiy talabchan bo'la olishdir. O'qituvchi talabalar bilan yaqindan munosabatda bo'lish ularga doimo g'amxo'rlik qilish bilan bir vaqtda ularni erkalatib ham yubormasligi kerak.

Shuning uchun hamisha yangi g'alabalar sari dadil qadam tashlab beruvchi yangiliklar izlovchi har bit o'qituvchi ta'lim tarbiya yo'llariga javob bera oladigan darajaga ko'tarish uchun tabiat va jamiyatning vujudga kelishi hamda taraqqiy etish qonuniyatlarini yaxshi bilishi kerak. O'qituvchi sinfda va sinfdan tashqarida o'qituvchilar o'rtasida olib boradigan ta'lim-tarbiya ishida ularni hozirgi zamon masalalari bilan tarbiyalaydi.

Pedagogika termini grekcha ikki so'z "pays", ya'ni bola hamda "egeyp", ya'ni boshlab berish, boshqarish, tarbiyalash degan so'zlardan kelib chiqadi. Tarixdan shunday bo'lib chiqdiki, pedagogika asosan bolalarni, yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan sifatida taraqqiy etdi.

Pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash to'g'risidagi fandir. Kishilik jamiyati taraqqiy etishi bilan u ham o'sib boradi. Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlarning mehnat faoliyati protsessida ularning ishlab chiqarish tajribalari mehnat malakalari paydo bo'ldi va ular o'zgarib, orta bordi, ularda turli mehnat qurollarini ishlata bilish ko'nikmalari hosil bo'ladi va bu qurollarni takomillashtirish qobiliyati, nutq va tafakkur o'sib rivojlanib bordi. Keksa avlod mehnat protsessida arttirgan tajribasi asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ham mehnatda ishtirok etishga o'rgatish kerak edi va shunday qildi. Shunday qilib tarbiya kishilik jamiyati praktik ehtiyojining obyektiv zaruriyatidan kelib chiqdi, shu jamiyat bilan birga rivojlana bordi.

ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Kasbiy ta'lim deganda, talabalarning muayyan tipdagi o'quv yurtida (litsey, kollej) o'qish jarayonida egallab olishi lozim bilgan hamda sistemaga solingan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Bu bilim, malaka va ko'nikmalar doirasi eng muhim faktlar, ilmiy tushunchalar, qonun va nazariyalarni dunyoqarash va g'oyalarini hamda estetik normalar va ideallarini talabalarning ko'rsatgan ma'lumotlarini o'rganish ularning ilmiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlarini usullari haqidagi materiallarini, shuningdek malaka va yangi zamonaviy bilimlarni amalda qo'llash va yangi bilimlarni egallashdagi malaka hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy ta'limning mazmuni bir qator faktorlarni hisobga olish bilan belgilanadi, bu faktorlarning asosiylari:

- a) Ijtimoiy ishlab chiqarishning obyektiv ehtiyojlari hamda fan va texnikaning taraqqiy darajasi, ijtimoiy tuzumning harakteri bunga davlatimizning hozirgi paytda olib borayotgan, kasbiy ta'lim nazariyasi va ma'naviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish chora tadbirlari haqidagi bosqich islohatlari keradi.
- b) Davlatimizning muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari. Bunday tipdagi o'quv yurtlari sirasiga o'qish muddati hamda 3 yil bo'lgan akademik litseylar va kasbiy kollejlari kirib, ular oldiga "Ijodiy va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadigan yuqori umumiy kasbiy ma'daniyatni kasb etgan mutaxassislar ya'ni barkamol avlodni shakllantirish maqsad qilib qo'yadi. Bunday barkamol avlodni shakllantirish maqsad (qilib qo'yiladi)ida vazirlar mahkamasi 1998-yil 24-fevralda qabul qilingan "Akademik litseylar va kasbiy kollejlari tashkil etish va ular faoliyatini boshqarish to'g'risidagi qarori kasbiy kollejlari uchun malakali pedagog va muhandis pedagog kadrlar tayyorlaydigan oiliy o'quv yurtlarini ham belgilab beradi. Bu xozirgi paytda faoliyat ko'rsatayotgan oiliy o'quv yurtlari Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. Namangan muxandestika pedagogika universiteti, Buxoro oziq-ovqat va yengiz sanoat institute va bugungi kunda birituv malakaviy mavzularni ximoya qilayotgan Samarqand Davlat Arxitektura-Qurilish institute, davlatimizning o'quv yurtlari oldida qo'yilgan maqsad va vazifalarning bosqichma bosqich amalga oshirilayotgan isloxlarni bo'lib, kasbiy ta'lim san'at yo'nalishlari bo'yicha burib chiqayotgan navbatdagi qaldirg'ochlardir.
- c) O'qitish prinsplaridan kelib chiqadigan va talabalarning imkoniyatlari etiborga oluvchi didaktik talablar kasbiy ta'limning mazmuni tarixiy

harakteriga ega. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida u turlicha bo'ladi. Bugungi kunga kelib esa kasbiy ta'limning dastlabki dasturida talabalar amaliy-manaviy kasb darslarida egallashi lozim bo'lgan, ilmiy-texnikaviy bilimlarning mehnat ko'nikma va shakllarining hajmi hamda mazmuni belgilab beriladi. Dasturda jamiyatimizning taraqqiyotining xozirgi bosqichida yoshlarga kasb ta'lim berish va ularni tarbiyalash sohasida davlatimiz tomonidan qo'yilgan maqsad va vazifalar ochiq o'z ifodasini topdi.

Kasbiy ta'lim dasturi o'quv reja asosida ishlab chiqariladi va demokratik davlatda olib va o'rta maxsus (ta'lim) kasb hunar ta'lim vazifalari tomonidan tasdiqlanadi. Dasturning mazmuni didaktik prinsiplarga to'la-to'kis javob berishi hisobga olingan holda va kasbiy ta'limning tonlangan didaktik sistemasiga muvofiq ravishda muayyan izchillikda bayon qilinishi (KPT qurilish – KPT san'at) misolida ko'rish mumkin. Turmush bilan suveren va demokratik davlat tizim, ozod va obod vatan qurish bilan bog'liq bo'lishi mehnat obyektlarning tasviya qilinadigan ro'yxati esa ijtimoiy ishlab chiqarish qiymatiga ega bo'lishi: tabiiy ilmiy sikldagi umumiy ta'lim fondlari (fizik, matematika, ximiya, chizmachilik, rassom, rangtasvir va hokazolar) bilan bog'lanishni amalga oshirishi. Kursdan kursga o'tish vaqtida o'quv materiali kasbiy ta'lim dasturlarida muntazam konstruk strukturaga muvofiq ravishda joylashtiriladigan bo'ladi. Buning ma'nosi shuki, talabalarda konstruktorlik ko'nikmalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan mehnat jarayonlarini mavzularini o'rganish, ishlarining texnologik xarakterlarini rivojlantirish va hokazolarning bajarilishi muntazam taribda joylashtiriladi, ya'ni har bir keying mavzu oldingi mavzuning davomi bo'ladi.

DARSNING TURI

Darsda qo'llaniladigan asosiy usullar

Darsning jihozlari: Ushbu darsga taaluqli bo'lgan asbob uskunalar material, chizmalar.

Darsning mazmuni:

1. Tashkiliy qism: Talabalar bilan salomlashib, jurnaldagi ro'yhat bo'yicha yo'qlama qilib chiqish.
2. O'tgan dars mavzusini so'rab, mustahkamlash va talabalar bilimini baholash.
 - a) miniatyura so'zini ma'nosini bilasizmi?
 - b) miniatyura necha xil bo'ladi?
 - c) miniatyuralar qanday bajariladi?
3. O'tilgan mavzuga yakun yasash.
4. Yangi mavzuni boshi.
5. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javoblar.
6. Uyga vazifa.
7. Darsni yakunlash.

Maxsus fan o'qitunchisi

Asatova Lolaning

4 soatga muljalangan

“Tasdiqlayman”

o'quv ishlar bo'yicha

direktor o'rinbosari

DARS REJA MATNI

Gurux:

Sana:

Darsning tartib soni № _4 soatga muljallangan

Darsning mavzusi: “Rangtasvirda miniatyura ishlash”

Darsning maqsadi: Talabalarga miniatyura ishlash ketma-ketligini to'shuntirib
ko'rsatish

Talimiy: Ishlab chiqarish talimi jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini
shakllantirish

.

Tarbiyaviy: Talabalarni kasbiy malakalarini shakllantirishda ustoz - shogird
an'alariga amal qilishni ko'rsatish.

Rivojlantiruvchi: Talabalarga individual usulda topshiriq berib, ularning ijodiy
qobiliyatini o'stirish.

DARSNING BORISHI

REJA:

1. Miniatyura yaratish ketma-ketligida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish.
2. Miniatyura yaratishda grafik ishlarni bajarishda, ustoz-shogird an'analari. Ustoz va shogirdning o'zaro mezonlari asosida ish yuritib borish.
3. Yuqorida o'tilgan dars ketma-ketligi jarayonida talaba tafakkur va kasbga qiziqishini oshirib, rivojlantirish orqali mavzuga oid plakat yaratish.

**AMALIY DARS O'TISH USLUBI QO'LLANIB O'TILADIGAN 80-MINUTLIK
DARS TAQSIMOTI**

Mavzu: Rangtasvirda miniatyura ishlash

O'qituvchi salomlashib, yo'qlama qiladi (guruh jurnali)	5 min
Uy vazifa tekshirilib, bilimlar baholanadi	15 min
Yangi mavzu e'lon qilinadi. "Rangtasvirda miniatyura ishlash"	5 min
Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatiladi. Talabalar tarqatma materiallarni mistaqil o'rganadi.	10 min
Talabalar tayyorgarlik ko'rib, tarqatma materillardan nusxa ko'chirishga kirishadi birinchi portret qalamda ko'chirib olinib, so'ngra rang beriladi. O'qituvchi bo'lsa, ish jarayonini kuzatib borib o'z maslahatlarini beradi.	40 min
Dars tugashiga 5 minut qolganda, o'qituvchi talabalarga bajargan ishlarini yig'ib olib, darsni yakunlaydi.	5 min

“Tasdiqlayman”

Kollej direktori

2013 - 2014 o'quv yiliga mo'ljallangan I-bosqich

“Tasviriy san’at” guruhi uchun o'qituvchi Asatova Lolaning

“Miniatiyura” fanidan tuzgan yillik ish dasturi

T/r	Bo'lim va mavzularni nomi	Mashg'ulot raqami	Dars o'tilgan kun	Dars soat	Mashg'u lot tipi va turi	Ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar	Mustaqil ish turi. Amaliy laboratoriya tadqiqoti	Uy vazifasi	Adabiy otlar	Fanlar-aro bog'- lanish	Izox
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1	Mutaxassislikka kirish	№1	2.04.13	2	Og'zaki amaliy	Amaliy sanatga oid plakatlar	Amaliy sanatga oid bilim va ko'nikmalarning yozma bayoni				
2	Kirish. Amaliy san'at asoslari	№2	14.04.13	2	Og'zaki	Amaliy san'at asoslarini isbotlab boruvchi slaydlar					
3	Amaliy san'at turlari	№3	20.04.13	2	Og'zaki	Amaliy sanat turlarini ish dasturiga yozib borish	Amaliy san'at turlarini ish dasturga yozib borish				
4	San'at mazmun va shakl	№4	26.04.13	2	Og'zaki	San'atga mazmun va shaklga oid bayonnomalar		O'qib Kelish		Tarix	
5	Amaliy san'at turlari	№5	2.05.13	2	Og'zaki	Amaliy san'at janriga oid material					
6	Rangtasvir san'ati	№6	8.05.13	2	Og'zaki	Rangtasvir san'atiga oid plakatlar	Plakatlarni o'rganish				
7	Nusxa ko'chirish san'ati	№7	14.05.13	2	Og'zaki	Nusxa ko'chirishga oid slaydlar	Plakatlarni o'rganish			Rasm	
8	Dars o'tish xonasida xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsiz	№8	20.05.13	2	Og'zaki va amaliy	Xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligiga oid plakatlar	Plakatlarni o'rganish			Fizika ximiya	
9	Nusxa ko'chirishda ishlatiladigan asbob uskunalarni saqlash qoidalari	№9	26.05.13	2	Og'zaki	Ma'lum usullardan foydalanish					

I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
10	Nusxa ko'chirishda ishlatiladigan asbob turlar	№10	1.05.13	2	Og'zaki	Asboblar tasvirlangan slaydlar	Asboblar tanlash				
11	Nusxa ko'chirishda eskizlarini qog'ozga chizish	№11	7.06.13	4	Og'zaki	Eskizlar				Ximiya	
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
12	Nusxa ko'chirish haqida tushuncha berish	№12	13.06.13	2	Og'zaki	Nusxa ko'chirishga oid plakatlar					
13	Tayyor eskizlarni qalamda bajarish	№13	19.06.13	4	Amaliy						
14	Qalamda tayyor miniatyuraga rang berish	№14	25.06.13	4	Amaliy	Mo'yqalam va rangladan foydalanish	Rangshunoslik slaydlar			Chizmachilik	
15	Taqdimot			50							

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Astanova Lola

Samarqand viloyati Samarqand shahar
Samarqand hunarmandchilik kolleji
Rangtasvir №__ guruh murabbiysi

“Tasdiqlayman” Kollej ma’naviyati
va ma’rifat ishlari bo’yicha director
o’rinbosari

Asatova Lolaning 2013-2014 o’quv yilida bajariladigan ma’naviy va ma’rifiy
ishlar rejasi

№	Bajariladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Izod
1	Avgust	25.08.13	Murabbiy
	Dars sinfxonasini davlat ramslari: Prezident portreti, davlat gerbi, davlat bayrog’I davlat tilini va president asarlari bilan jihozlash		
2	Sentabr	1.09.13	Ma’naviyat va ma’rifat bo’yicha director o’rinbosari
	1-sentabr O’zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuniga bag’shlangan tadbirda qatnashish		
3	Sentabr	2.09.13	Direktor o’rinbosari
	Bilim yurtidan kelgan talabalarni, bilim yurtining ichki qonun-qoidalarini bilan tanishtirish		
4	Oktabr	Doimiy	Murabbiy
	Shahrimizdagi tarixiy obidalar haqida suhbat		
5	Guruh davomati va o’qish jarayonini tekshirib borish		
6	Oktabr	Doimiy	Tarix o’qituvchisi
	O’zbekiston Respublikasining Davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to’liq ma’lumot berish		
7	Dekabr	7.11.13	Murabbiy. Tarix o’qituvchisi
	8-dekabr O’zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyasi kuni” mavzusida talabalarga ma’ruza o’qish		
8	Yanvar	25.01.14	Murabbiy
	I-yarim yillik yakuni guruhning umumiy va maxsus fanlardan to’plangan joriy oraliq va yakuniy nazorat rayting ballarini ko’rib chiqib, talabalar bilan birgalikda tahlil qilishi.		

Tuzuvchi fan o’qituvchisi:

Asatova Lola

XULOSA

XULOSA

Hech ikkilanmasdan aytishim mumkin, san'atga bo'lgan qiziqishim meni aynan shu o'quv dargohning "Kasbiy ta'lim" fakulteti "san'at" bo'lishiga hujjat topshirishimga sababa bo'ldi. Men bundan hech pushaymon emasman.

Chunki to'rt yillik tahsilim davomida, ustozlardan san'at sirlarini o'rgandim o'zim uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldim.

Albatta buning uchun dekanimiz Abduraimov M rahbarlik qilayotgan fakultetimiz ustoz va murabbiylaridan minnatdorman. Yuqorida ta'kidlab o'tganimdek, biz talabalarning shu darajaga yetishimizda ustozlarning tinimsiz mehnati yotibdi. Ularning bizga singgan mehnatlarning oqlash maqsadida diplom ishimni, talab darajasida bajarishga baholi-qudrat harakat qildim. Albatta, diplom ishimni baholash hurmatli DAK ramsi va komissiya a'zolarining hukmiga havola.

Yana bir marta ustozlarimga ular qatori fakultetimiz dekani M. Abduraimovga ham rahmat aytaman.

ADABIYOTLAR

ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”. Toshkent 2002-yil.
2. M. Qodirov “Miniatyura san’ati” Toshkent 2000-yil.
3. Pugachevki “Markaziy Osiyo miniatyurasi” Toshkent 2007-yil.
4. Polyakov E. A. Raxomova Z. I. “Miniatyura sharq adabiyoti”. 1987-yil.
5. Xasanov P. “Miniatyura mashg’ulotlarini taomillashtirish”. Toshkent 1986-yil.
6. H. Axmedov “XX asr O’rta Osiyo rangtasvir san’ati” Toshkent 2001-yil.
7. X. Egamov “Bo’yoqlar bilan ishlash”. Toshkent 1981-yil.
8. M. Nabiyev “Rangshunoslik” Toshkent 1995-yil.
9. X. T. Avliyoqulov “Zamonaviy o’qitish texnologiyalari” Toshkent 2001-yil.